

HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI

Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 937220855

Qarshiyev Abbos odil o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

abbosbekqarsheyiv2004@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda hududiy rivojlanish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot hududlararo iqtisodiy farqlarni kamaytirish, mahalliy salohiyatni oshirish va hududlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari hamda infratuzilma va ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. Maqola hududiy siyosatning amaliy ahamiyati va hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik jihatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, davlat siyosati, iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, mahalliy salohiyat, strategiya, dastur.

Kirish

Hududiy rivojlanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida hududiy siyosat mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki hududlararo tafovutlar uzoq muddatli rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, hududiy rivojlanish strategiyasini tadqiq etish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini samarali rejalashtirishda ilmiy ahamiyatga ega.

Prezident tomonidan qabul qilingan qarorda hududlarda sanoatning tezlashtirilgan rivojlanishi va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha “Hududlarda sanoatni tezlashtirilgan rivojlantirish va eksportga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar” dasturi tasdiqlandi. Ushbu hujjat 2025–2026 yillar davomida hududiy sanoat salohiyatini oshirish, texnologik yuqori darajadagi loyihalarni amalga oshirish, 3 500 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish va har bir tuman hamda shahar bo'yicha yetakchi sanoat punktlarini shakllantirishni ko'zda tutadi [1]. Ushbu qonuniy asos tadqiqot uchun muhim metodologik va amaliy baza sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, hududiy rivojlanish siyosatini o'rganish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda ham muhimdir. Tadqiqot natijalari hududiy siyosatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, strategiyalar samaradorligini baholash hamda yangi tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, hududiy siyosatni ilmiy asosda tahlil qilish mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy rejalashtirish va hududlararo tenglikni oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ham zarurdir.

Adabiyotlar sharhi

Davlat tomonidan hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha siyosat olib borishi yuzasidan hozirga qadar ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan. Jumladan, X. Chen va W. Linglar tomonidan yozilgan "Coordinated Regional Economic Development: A Study of the Relationship Between Regional Policies and Business Performance" nomli maqolada Xi Jinping davrida joriy etilgan mintaqaviy siyosatlar va korxona samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda o'rganiladi[2]. Olimlar hududiy siyosatning regional iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'sirini korxona darajasida tahlil qilib, davlat siyosati orqali kichik va o'rta korxonalar samaradorligini oshirish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalarini ochib beradi. Bu ish regional iqtisodiy rivojlanish siyosatining biznes natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi va davlat siyosati samaradorligini baholashga ilmiy yondashuv beradi

Shuningdek, Rosianna Sianiparning "Economic Development and Tourism at the Regional Level: A Literature Review" nomli ilmiy ishida hududlar iqtisodiy rivojlanishining turizm sektori orqali amalga oshirilishiga bag'ishlangan. Olim regional iqtisodiyot nazariyalari va turizm iqtisodiyotini birlashtirgan adabiyotlarni tahlil qilib, turizmning mintaqaviy o'sishga qo'shadigan hissasini ochib beradi. Ish hududiy siyosat doirasida servislarga yo'naltirilgan elektiv strategiyalarni qo'llash zaruratini ko'rsatadi va akademik diskursni kengaytiradi [3].

C. Bassil va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan "The Economic Impact of Tourism at Regional Level: A Systematic Literature Review" - Ushbu maqola turizmning mintaqaviy iqtisodiy ta'siri bo'yicha tizimli adabiyot sharhini beradi. Tadqiqodchilar maqolada turizmning mahalliy iqtisodiy o'sish, daromad va bandlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatgan tadqiqotlarni sintezlaydi [4]. Hududiy siyosatni ishlab chiqishda turizm sektorining iqtisodiy rejalashtirishdagi rolini tasdiqlaydi va mintaqaviy siyosatning eksport ilovalari uchun model bo'lishi mumkinligini yoritadi

Xuddi shunday, C. Calero o'zining "Regional Economic Development and Tourism: A Literature Review" nomli maqolasida regional iqtisodiyot va geografiya nazariyalarini turizm bilan bog'lab ko'rsatadi [5]. U regional rivojlanish tadqiqotlarida turizmning dastlab inobatga olinmaganligini qayd etadi, ammo rivojlanish

strategiyalarining muvaffaqiyati uchun xizmatlar sektori qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Bu ish maqolaga davlat siyosati kontekstida iqtisodiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish zaruratini tushuntirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi

O'zbek tadqiqodchisi S. I. Mustafakulovning "O'zbekiston-2030 strategiyasi: hududiy iqtisodiy rivojlanish doirasida viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari" nomi maqolasida O'zbekiston hududlari o'rtasidagi farqlarni kamaytirish bo'yicha 2030 strategiyasini tahlil qiladi. Maqola muallifi hududiy tafovutlar sabablarini va davlat siyosati orqali ularni kamaytirish choralarini o'rganib, respublika ichki siyosatining iqtisodiy integratsiyaga ta'sirini ko'rsatib beradi [6]. Bu ish davlat siyosati huquqiy asoslarini milliy kontekstda yoritishda muhim manba hisoblanadi

Shuningdek, R. Quziev o'zining "Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va takomillashtirish yo'nalishlari" nomli ilmiy maqolasida erkin iqtisodiy hududlarning moliyaviy mexanizmlari orqali rivojlanishini tahlil qiladi. Quziev davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni hududiy rivojlanish siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi va investitsiyalarni jalb etish strategiyalarini taklif qiladi. Bu ish hududlarni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati masalalarini chuqur nazariy asos bilan to'ldiradi [7].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada hududiy rivojlanish bo'yicha davlat siyosatini tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari kombinatsiyasi qo'llanildi. Asosiy ma'lumotlar rasmiy hujjatlar, strategiyalar, farmonlar va ilg'or ilmiy maqolalar asosida yig'ildi. Tadqiqot jarayonida hududiy siyosatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun SWOT tahlil metodologiyasi qo'llanildi, shuningdek hududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy va investitsion natijalari statistik ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Shu bilan birga, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili orqali siyosat samaradorligini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Tahlil va natijalar

Yurtimizda hozirga qadar ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu islohotlarning aksariyatlari aynan hududlarni iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Davlatning olib borayotgan siyosati hamda ushbu siyosatni amalda qo'llash uchun ishlab chiqayotgan turli xil strategiya va dasturlar ham shular jumlasidandir. Quyida mamlakatimizda hozirga qadar hududlar kesimida rivojlantirishni ta'minlash uchun amalga oshirilgan davlat siyosatlarining tahlilini ko'rib chiqamiz. (1-jadval)

1-jadval.

O'zbekistonda 2016-2025 yillarda hududlarni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati. [8], [9], [10], [11], [12], [13]

Davr	Dastur nomi	Asosiy maqsadlar	Erishilgan natijalar	Hozirgi holati
2017-2021	Harakatlar strategiyasi	Hududlarni kompleks rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish	200dan ortiq sanoat zonalari barpo etildi; hududiy soliq tushumlari oshdi; 2016-2021 yillarda YAIM o'sishi 2 baravar tezlashdi	Yakunlangan
2017-2021	Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari	Viloyatlarning sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish	Andijon, Namangan, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshdi; 15 mingdan ortiq yangi loyihalar ishga tushdi	Yakunlangan
2018-2021	“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari	Hududlardagi ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, aholining turmush sharoitini ko'tarish	6 mingdan ortiq mahalla obodonlashtirildi; ichimlik suvi, yo'l va elektr tarmoqlari sifati yaxshilandi	Amalda yakunlandi
2019-2021	Sanoatni rivojlantirishning hududiy dasturlari	Har bir hududda ixtisoslashgan sanoat tarmoqlarini shakllantirish	50 dan ortiq yangi yirik korxonalar ishga tushirildi; mahalliy lashtirish ko'rsatkichi oshdi	Yakunlangan
2020-2025	“Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi	Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni qisqartirish, infratuzilmani to'liq modernizatsiya qilish	2020-2024 yillarda xalqaro investitsiyalar oqimi 2.5 baravar oshdi; 500dan ortiq yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi	Davom etmoqda

2020-2025	Milliy eksportni oshirish strategiyasi	Hududlarda eksportchi korxonalar sonini ko'paytirish	Export qiluvchi korxonalar soni 2 baravar ko'paydi; 2023-yilga kelib 500 ta yangi eksportchi subyekt shakllandi	Davom etmoqda
2022-2026	Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi	Hududlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish, raqamlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Har bir hududda "Hududiy investitsiya dasturi" joriy etildi; 2022-2024 da 1500dan ortiq sanoat loyihasi moliyalashtirildi	Davom etmoqda
2023-2025	Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish dasturlari	Investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun erkin sharoit yaratish	2023-yilda viloyatlar kesimida 11 mlrd USD investitsiya jalb qilindi, Farg'ona vodiysi hududlari eng yuqori o'sish qayd etdi	Davom etmoqda
2023-2026	"Ijtimoiy himoya yagona reestri" orqali hududlarda kambag'allikni kamaytirish dasturi	Hududiy daromadlar tafovutini qisqartirish, aholini barqaror daromad manbaiga ega qilish	Kambag'allik darajasi 17% dan 11% gacha pasaydi	Davom etmoqda

Islohotlarning dastlabki yillari 2016-yildan boshlab O'zbekistonda hududlarni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilgan siyosatlar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. 2017–2021 yillar davomida qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi" va hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari infratuzilma modernizatsiyasi, investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu dasturlar natijasida hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi, soliq tushumlari oshdi, aholining turmush sharoiti yaxshilandi. Shu bilan birga, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari orqali infratuzilma va mahalla darajasidagi xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hududlararo

iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Shuningdek, amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi va PF-60, PF-27 farmonlari hududiy iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini ochdi. Ushbu strategiya hududlarni rivojlantirishning barqaror va kompleks mexanizmlarini yaratishga, investorlar uchun erkin va jozibali muhit shakllantirishga qaratilgan. Jadval ko‘rsatgichlaridan ko‘rinib turibdiki, hududiy investitsiya dasturlari orqali yirik sanoat loyihalari amalga oshirildi, eksportchi korxonalar soni oshdi, kambag‘allik darajasi kamaydi va infratuzilma modernizatsiyasi tezlashdi. Shu bilan birga, strategiyalar hududlararo tafovutlarni qisqartirish, mahalliy ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, davlat siyosatining tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvi O‘zbekistonning hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga imkon berdi.

O‘zbekistonda hududlar kesimida rivojlanishni aniqroq tahlil qilish uchun SWOT analiz usulidan foydalanamiz. (2-jadval).

2-jadval.

O‘zbekistonning hududiy rivojlanish siyosatining SWOT tahlili

Kategoriya	Tavsifi
Kuchli tomonlar	- Davlat tomonidan uzoq muddatli va bosqichma-bosqich strategik rejalashtirish - Hududiy investitsiya dasturlari orqali yangi sanoat va ijtimoiy infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi. - Mahalliy va xalqaro investorlar uchun jozibador muhit yaratish. - Ijtimoiy dasturlar orqali aholining turmush sharoitini yaxshilash.
Zaif tomonlar	- Hududlararo iqtisodiy tafovutlar hali ham mavjud; ayrim viloyatlar rivojlanish sur'ati past. - Hududiy boshqaruv tizimida malaka va resurslar yetishmasligi. - Ba'zi infratuzilma loyihalarining moliyalashtirilishi sekinlashishi yoki byudjetga bog'liqlik. - Strategiyalar ijrosini monitoring qilish va natijalarni baholash tizimi to'liq rivojlanmagan.
Imkoniyatlar	- Global investitsiyalar va xalqaro hamkorlik orqali hududiy sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish. - Raqamli transformatsiya va smart-city, smart-village loyihalari orqali hududiy boshqaruvni samarali qilish. - Eksport va turizmni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi.

	- Mahalliy ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatni oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish.
Tahdidlar	- Global iqtisodiy shoklar (inflyatsiya, neft va gaz narxлари o'zgarishi) hududiy loyihalarga ta'sir qilishi mumkin. - Mintaqaviy raqobat va migratsiya oqimlari tufayli ayrim hududlarda ishchi kuchi yetishmasligi. - Siyosiy yoki moliyaviy barqarorlikni buzuvchi ichki va tashqi omillar. - Hududiy loyihalarning samaradorligini past baholash va strategiyalarni amalga oshirishdagi kechikish.

Tahlil orqali shuni ayta olamizki, O'zbekistonning hududiy rivojlanish siyosati kuchli strategik asosga ega. Davlat tomonidan uzoq muddatli rejalashtirish, hududiy investitsiya dasturlari va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan loyihalar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mahalliy va xalqaro investorlar uchun jozibador muhit yaratish, yangi sanoat loyihalari va xizmatlar sohasini rivojlantirish hududiy iqtisodiy salohiyatni kengaytiradi. Ijtimoiy dasturlar orqali aholining turmush darajasini yaxshilash ham davlat siyosatining kuchli tomonini tashkil etadi.

Shuningdek, siyosatning zaif tomonlari va tahdidlari ham mavjud. Hududlararo iqtisodiy tafovutlar hali to'liq bartaraf etilmagan, ba'zi viloyatlar rivojlanish sur'ati past, va hududiy boshqaruv tizimida malaka va resurslar yetishmasligi mavjud. Shu bilan birga, global iqtisodiy shoklar, siyosiy yoki moliyaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillar va strategiyalarni amalga oshirishdagi kechikishlar hududiy rivojlanish jarayoniga tahdid soladi. Biroq, raqamli transformatsiya, smart-city loyihalari va eksport hamda turizmni rivojlantirish kabi imkoniyatlar hududiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, shuningdek kambag'allikni kamaytirish va hududiy iqtisodiy farqlarni qisqartirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Umumiy olinganda O'zbekistonning hududiy rivojlanish bo'yicha davlat siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va mahalliy salohiyatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidan iborat. Davlat tomonidan amalga oshirilgan investitsion dasturlar, infratuzilma loyihalari va ijtimoiy ko'maklar hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur'atini sezilarli darajada oshirdi.

Biz tahlil natijalari orqali shuni aytishimiz mumkinki o'zbekiston siyosati hududiy rivojlantirish jarayonida kuchli va zaif tomonlarini ham mavjud ekan. Kuchli tomonlar hududlararo barqaror o'sish, investitsion jozibadorlik va mahalliy iqtisodiy

salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilsa, zaif tomonlar va tahdidlar, jumladan hududiy boshqaruv tizimidagi resurs yetishmasligi va ayrim hududlarda o'sish sur'atining pastligi siyosat samaradorligini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va hududiy iqtisodiy diversifikatsiya imkoniyatlari siyosatning muvaffaqiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Natijada, O'zbekistonning hududiy rivojlanish bo'yicha davlat siyosati mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, hududlararo tafovutlarni qisqartirish va mahalliy ishlab chiqarish va xizmatlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Siyosatning samaradorligini yanada oshirish uchun hududiy boshqaruvni modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmalarni kengaytirish, mahalliy iqtisodiy salohiyatni diversifikatsiya qilish va siyosat natijalarini tizimli monitoring qilish tavsiya etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, hududiy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va mahalliy kadrlar malakasini oshirish lozim. Shuningdek, raqamli infratuzilmalarni joriy etish orqali hududiy iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish ham maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hududiy iqtisodiy salohiyatni diversifikatsiya qilish, jumladan eksport va xizmatlar sektorini rivojlantirishimiz kerak.

Uchinchidan, siyosat natijalarini muntazam monitoring qilish va baholash orqali samaradorlikni oshirish nazoratni ushlab turishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] "O'zbekiston Prezidentining hududlarda sanoatni tezlashtirilgan rivojlantirish va eksportga yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlari tasdiqlandi".

<https://www.uzdaily.uz/en/president-of-uzbekistan-approves-measures-for-accelerated-industrial-development-in-the-regions/>

[2] X. Chen and W. Ling, "Coordinated Regional Economic Development: A Study of the Relationship Between Regional Policies and Business Performance," *Economics*, vol. 18, no. 1, Oct. 2024. Available: <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/econ-2022-0113/html>

[3] R. Sianipar, "Economic Development and Tourism at the Regional Level: A Literature Review Identifying Competitiveness Future Research Directions in Regional Tourism," *Electronic Journal of Education, Social Economics and Technology*, 2024. Available: <https://www.ejeset.saintispub.com/ejeset/article/view/625>

[4] C. Bassil, G. Harb, and R. Al Daia, "The Economic Impact of Tourism at Regional Level: A Systematic Literature Review," *Tourism Review International*, vol. 27, no. 2, pp. 159-175, May 2023.

[5] C. Calero, “Regional Economic Development and Tourism: A Literature Review to Highlight Future Directions for Regional Tourism Research,” *Tourism Economics*, 2020.

[6] S. I. Mustafakulov, “O‘zbekiston-2030 strategiyasi: hududiy iqtisodiy rivojlanish doirasida viloyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalalari,” *Economics and Innovative Technologies*, vol. 13, iss. 7, 2025. Iqtisodiyot Journal

[7] R. Quziev, “Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va takomillashtirish yo‘nalishlari,” *Green Economy and Development*, 2025.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risidagi farmon <https://uza.uz/oz/posts/2017-2021-yillarda-o-zbekiston-respublikasini-rivojlantirish-18-01-2019>

[9] “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari bo‘yicha qaror <https://lex.uz/uz/docs/-5352583?ONDATE=03.04.2021&ONDATE2=09.06.2021>

[10] <https://lex.uz/docs/-5841063>

[11] https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

[12] [https://api-portal.gov.uz/uploads/8df9f9cc-87c4-58b1-520b-4c25631fd3e2_media .pdf](https://api-portal.gov.uz/uploads/8df9f9cc-87c4-58b1-520b-4c25631fd3e2_media.pdf)

[13] <https://uzbekistan2030.uz/uz/decree/2>